

## Shavkat MIRZIYOYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti:

Yangilangan Konstitutsiyamiz asosida bo'lib o'tgan saylovda fuqarolarimiz yakdil va bir bo'lib, yuksak siyosiy madaniyati va faolligini ko'rsatdi. Buni butun dunyo hamjamiyati ko'rdi va e'tirof etmoqda.

Saylovda faol ishtirok etgan, o'zining xohish-irodasi, yuksak siyosiy ongi va huquqiy madaniyatini yaqqol namoyon etgan, keng ko'lamlı demokratik islohotlarni qo'llab-quvvatlab kelayotgan barcha vatandoshlarimizga, butun xalqimizga samimiy hurmat-ehtiromimni izhor etaman.

Mard va oljanob xalqimizning menga bildirgan yuksak ishonchini oqlash uchun bor bilim va tajribamni, kuch-g'ayratimni safarbar etishga, bu yo'lda, kerak bo'lsa, jonimni ham fido qilishga tayyorman.



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 12-iyul, chorshanba,  
83 (23.804)-son

KUN  
HIKMATI

Ulug'likni tan  
olish uning  
davomiyligini  
ta'minlaydi



Z www.zarnews.uz F https://www.facebook.com/zarnews.uz T @zarnews\_uz S https://twitter.com/zarnews\_uz

## Saylov natijalari bo'yicha qaror qabul qilindi

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining kecha o'tkazilgan majlisida 2023-yil 9-iyul kuni bo'lib o'tgan muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarning 15,6 milliondan ziyodi yoki qarib 80 foizi o'z xohish-irodasini erkin ifoda etib, o'zi munosib deb bilgan nomzodga ovoz berdi.

Majlida 2023-yil 9-iyul kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakunlari bo'yicha bayonnoma

tuzildi hamda saylov natijalarini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Jumladan, saylovda ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning 87,05 foiz ovozi bilan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston "Adolat"

sotsial-demokratik partiyasidan nomzod Robaxon Anvarovna Mahmudovaga saylovchilarning 4,43 foizi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Ilyosovich Inoyatovga 4,02 foizi va O'zbekiston Ekoologik partiyasidan nomzod Abdushukur Xudoqulovich Hamzayevga 3,74 foizi yoqlab ovoz beriganligi bayonnomada aks ettirildi.

2023-yil 9-iyul  
kuni o'tkazilgan  
muddatidan  
ilgari O'zbekiston  
Respublikasi  
Prezidenti  
saylovi natijalari  
to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106 va 128-moddalari, Saylov kodeksining 14, 16, 96-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalarining saylov natijalari to'g'risidagi bayonnomalari asosida Markaziy saylov komissiyasi QAROR QILADI:

1. 2023-yil 9-iyulda o'tkazigan muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Saylov kodeksiga muvofiq haqiqiy va bo'lib o'tgan deb topilsin.

2. Shavkat Miromonovich MIRZIYOYEV 2023-yil 9-iyul kuni muqobilli asosida bo'lib o'tgan saylovda ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning 87,05 foiz ovozi bilan yetti yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida, shuningdek boshqa manbalarda e'lon qilinsin.

Markaziy saylov komissiyasi raisi Z. NIZAMXODJAYEV


2023-yil 11-iyul

## REGISTON – ENG JOZIBADOR SAYYOHLIK MASKANI

Registon majmuasida "Butunjahon turistik jozibador obyektlari" tashkiloti ro'yxatiga kirgan obyektlar sertifikatlarini topshirish marosimi o'tkazildi.

Tadbirda Yevroosiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi Vladimir Piskurev, Samarcand viloyati hokimi o'rinnbosari R.Qobilov va boshqalar mazkur ro'yxat va uning ahamiyati haqida so'z yuritdi.

2017-yilning 7-noyabr kuni Turkiyaning Antalya shahrida bo'lib o'tgan Yevroosiyo Madaniyat, fan va ta'lif kengashining ikkinchi sessiyasida "Jamiyatlar, xalqlar va millatlarning barqaroq rivojlanishi uchun turistik diqqatga sazovor joylarni rag'batalantirish to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilingan. Konvensiyani amalga oshirish doirasida turizming jozibadorligi va turizmni barqaroq rivojlantrish bo'yicha xalqaro qo'mita tuzildi.




Xalqaro qo'mita faoliyatining asosiy masalalaridan biri turistik diqqatga sazovor joylarni ommalashtirish, jamiyatlar, xalqlar va millatlarning barqaroq rivojlanishi yo'lida turistik hududlarni targ'ib qilishdan iborat.

– Xalqaro qo'mita "Turistik diqqatga sazovor joylarning jahon ro'yxati"ni tuzadi, yangilaydi va global Internetda e'lon qiladi, ayniqsa, qimmatli moddiy, nomoddiy va tabiiy turistik diqqatga sazovor joylar ro'yxatini e'lon qiladi, – dedi R.Qobilov. – Muayyan obyektni maxsus turistik diqqatga sazovor joylarning jahon ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi qaror xalqaro qo'mita sessiyasida ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Bugungi kunga

qadar mazkur tashkilotga xorijiy mamlakatlarning 198 shaharlari moddiy va nomoddiy meros obyektlari a'zo hisoblanadi.

– UNESCO tomonidan butunjahon moddiy va nomoddiy meros ro'yxatga olinib, himoya qilinadi, – deydi Yevroosiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi Vladimir Piskurev. – Biz tuzadigan ro'yxat ham buni to'ldiradigan, dunyodagi eng e'tiborli turistik obyektlarni targ'ib etish, asrab-avaylashtga xizmat qiladigan harakat. E'tiborlisi, bunda turizm uchun jozibador obyektlarni sayyoohlardan belgilaydi. Ayni paytda dunyo bo'yicha biz ro'yxatga olgan obyektlar 2200 ta. Endilidaular qatoriga Samarqanddagi Registon ansamblini va Shohi Zinda yodgorlik majmuasi qo'shildi. To'rt yil davom etgan ovoz berish jarayonida 198 davlatdagi sayyoohlardan obidalarga juda yuksak baho berdi. Ayniqsa, ovoz beriganlarning 50 foizdan ortigi Registoni dunyodagi birinchi turistik obyekt bo'lishi kerak degan fikri bildirdi.

A.ISROILOV.



## Yangi avtobuslar bilan "YASHIL SHAHAR" sari

Samarqand xalqaro turizm markazida Samarqand shahridagi jamoat transporti xizmatini yanada rivojlantirish, "yashil shahar" doirasida jamoat transportini texnologik yangilash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga bag'ishlangan taqdimot o'tkazildi.



Tadbirda viloyat hokimi o'rinsabari Rustam Qobilov, Transport vazirligi departamenti boshlig'i Ruslan Ro'zmetov hamda "Yutong bus" kompaniyasining Markaziy Osiyo bo'yicha sotuv bo'limi boshlig'i Yang Hu so'zga chiqib, o'zaro hamkorlik aloqalari, istiqboldagi rejalarga to'xtaldi.

– "Yutong bus" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan zamona yoki avtobuslar 2012-yildan buyon mamlakatimiz transport tarmog'iда samarali xizmat ko'rsatmoqda, – deydi Transport vazirligi departamenti boshlig'i Ruslan Ro'zmetov. – Dastlab kompaniya avtobuslaridan turizm sohasida foydalilanigan bo'lsa, bugungi kuniga kelib, jamoat transportida ham keng joriy etilmoqla. Xususan, Toshkent shahri jamoat transportini rivojlantrish maqsadida olib kelilgan zamona yoki avtobuslarning 800 tasi "Yutong bus" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Eng muhim, ushbu avtobuslarning 300 tasi elektrobus bo'lib, bugungi kunda katta shaharlarda amalga oshirilayotgan "yashil shahar" rejasiga to'la javob beradi. Ushbu transport vositalarining har tomonlamo qulayligi bois Samarqand shahrida ham jamoat transportini rivojlantrish borasida boshlangan islohotlar jarayoni-

da yo'nalishlarda avtobuslarni elektrobuslarga almashtirish ko'zda tutilgan.

Shu asosda Yevropa tiklanish va tarqqiyot banki bilan hamkorlikda e'lon qilingan loyiha tenderida "Yutong bus" kompaniyasi g'olib bo'ldi. Kelishuvga ko'ra, 350 ta elektrobus olib kelinishi ko'zda tutilgan bo'lib, joriy yilda 100 ta zamona yoki elektrobus Samarcand shahri jamoat transporti uchun yetkazib berilishi belgilangan. Ayni paytgacha 6 dona elektrobus keltirilgan. "Yutong bus" bilan hamkorligimiz faqatgina ushbu bilan cheklanib qolmaydi, albatta. Nukus va Namangan shaharlarda ham "Yutong bus" elektrobuslari jamoat transportiga joriy etiladi.

Tadbir davomida "Yutong bus" kompaniyasi tomonidan shaharlara va turistik xizmatlarni uchun mo'ljallangan yangi avlod avtobuslari taqdimoti o'tkazildi.

– O'zbekiston transport bozorida 10 yillarda beri faoliyat yuritib kelyapmiz, – deydi "Yutong bus" kompaniyasining Markaziy Osiyodagi sotuv bo'limi boshlig'i Yang Hu. – Bu vaqt oralig'i da o'zbekistonlik hamkorlarimiz bilan samarali aloqalarni yo'lg'a qo'yidik. Bugungi kunda Toshkent shahrida kompaniya-mizda ishlab chiqarilgan 300 ta elektro-

bus va tabiiy gazda harakatlanadigan 500 ta avtobus aholiga sifatli xizmat ko'rsatib kelmoqda. Albatta, sifatli mahsulotga talab ortadi. Biz ham ayni shu maqsadda avtobuslarimizni zamona talablariga mos tarza takomillashtirib bormoqdamiz. Bugun taqdim qilingan yangi avlod avtobuslarimiz har jihatdan kamxarj, chidamlar, xavfsiz bo'lganligi bois hamkorlarimiga ma'qul keladi, deb o'layman. Ayni paytda mamlakatimiz kompaniyamiz ishlab chiqargan avtobuslarga texnik xizmat ko'rsatish ham dolzlar masala bo'lib turibdi. Bu borada ham maqsadli rejalarni amalga oshiriyapmiz. Bugungi kunda kompaniyamiz tomonidan 20 nafer malakali mutaxassis O'zbekistonda texnik xizmat ko'rsatish ishlarni olib bormoqda. Samarqand jamoat transportida ham yirik loyihami amalga oshiriyapmiz. Buning uchun shu yerda texnik xizmat ko'rsatish markazi tashkil qilinishi zarur. Shu maqsadda mahalliy hamkorlarimiz bilan birgalikda analiy ishlarni boshlaganmiz.

Tadbir davomida yangi modeldarining texnik imkoniyatlari, xizmat ko'rsatish, xardlarni amalga oshirish bo'yicha taqdimotlar namoyish etildi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,  
"Zarafshon" muxbiri.

Mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, jismoni shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'in aholining soliq to'lash savodxonligini oshirish orqali undirishga ko'maklashish va har bir mahalla o'zing muammosini mustaqil hal etishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi qaroriga asosan, joriy yilning 1-yanvaridan respublikamizdagi soliqlarni undirish ko'rsatkichi past bo'lgan 14 tuman-dagi 764 mahallada "Mahalla budgeti" tizimi huquqiy eksperiment tariqasida joriy etildi.

Past Darg'om tumani rahbarlari

E'TIBORIGA!

## KIM KIMNI ALDAGAN?

Kompaniya gazetanimi yoki gazeta muallifnimi?

Prezidentimizning 2019-yil 20-fevralda "Obod qishloq" dasturini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda qishloq aholi punktlarining me'morii qiyofasini tubdan yangilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo'l-transport infastrukturini, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish hamda shu asosda aholining turmush madaniyatini yuksaltirish maqsadida Past Darg'om tumanidagi Beklar, Olti qahramon va Eski Juma mahallalari tanlab olinib, tuman hokimligining doimiy ishlovchi shtablarini tashkil etilgan.

Dastur asosida Beklar mahallasidagi 103-maktab uchun qo'shimcha bino qurish, Mirzo Ulug'bek shifokorlar uyi qurilishini yakunlash va ikkita maktabgacha ta'lim tashkiloti - bitta yangi qurilish va bitta kapital ta'mirlash ishlari belgilangan. Buning uchun qurilish korxonalarini tanlanib, mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatilgan.

Ammo barcha ishlar rejalashtirilganidek bo'lmaganligi bois bitmagan qurilishlar bo'yicha murojatimiz "Zarafshon" gazetasi muxbirlari tomonidan joyida o'rganilgandi. So'ngra ushbu gazetaning 2022-yil 18-yanvar 6-sonida "Obod qishloqlari" Ulardagi qurilishlar qachon bitadi?" sarlaviali tangidiy maqola e'lon qilingan. Unda tumanda 2019-yilda "Obod qishloq" dasturiga kiritilgan va yuqorida sanab o'tilgan maktab, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va shifokorlar uyi qurilish hamon tugallanmaganligi bayon etilgandi. Qurilish xarajatlарining 60 foizi tuman hokimligi tomonidan qo'llanishi ko'zda tutilgan, ammo mablag' ajratilmagach, ishlar o'z holicha qolib ketdi.

Tangidiy maqoladan so'ng "Zarafshon" gazetasining 2022-yil 17-may 56-sonida viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi direktorining "Obod bo'lmayotgan qishloq" uchun pul ajratildi" sarlaviali javob xati e'lon qilindi. Unda Xalq deputatlari viloyat Kangashining 2022-yil 17-apreldagi qaroriga ko'ra, viloyat mahalliy budget mablag'lari hisobidan Beklar mahallasidagi 103-maktabdagi qo'shimcha binoda chala qolgan qurilish ishlari yuvalashga 144 million so'm, 56-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining chala qolgan qurilish ishlari 1 milliard 519,1 million so'm, "Mirzo Ulug'bek" shifokorlar uyiga 130,5 million so'm, Go'zalkent mahallasidagi 46-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga 1 milliard 365 million so'm mablag' ajratilganligi bildirilgan. Ushbu mablag'lar hisobidan chala qolgan qurilish ishlari 2022-yil yakuniga qadar tugallanib, foydalanshiga topshirilishi aytilgan. Biroq, ishlar eski tos, eski hammonligicha qolib, chala qurilishlar qog'ozdan nariga o'tmagan.

Savol tug'iladi, mablag' ajratilgan bo'lsa, pul qayerga ketdi, ajratilmagan bo'lsa, nega yolg'on ma'lumot berildi? Xo'sh, unda kim kimni aldagani?

Xudoynazar TO'RAQULOV.

## "MAHALLA BUDGETI" TIZIMI

mahalla o'zining muammosini mustaqil hal etishi uchun keng imkoniyat

Mazkur tumanlarda mol-mulk va yer solig'i (noturar joylar bo'yicha mol-mulk va yer solig'i bundan mustasno) bo'yicha undirilgan mablag'larning 10 foizi hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha tuman budgetlari orqali tegishli jamg'armalarga yo'naltiriladi.

Asosiyasi, mahalla fuqarolar yig'ini raislari uchun "Soliq.uz" mobil ilovasining "Mening mahallam" bo'limi orqali hududlardi qolqo to'lovchilar tomonidan to'lashi lozim bo'lgan mol-mulk va yer soliqlarni real vaqt rejimiда aniqlash imkoniyati yaratilgan.

Shu o'rinda "Mahalla budgeti" tizimi aholi uchun qanday imkoniyatlar yaratadi degan haqli savol tug'iladi.

"Mahalla budgeti" tizimi aso-

sida shakllantirilgan mablag'lar "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan fuqarolar yig'ini kengashi tomonidan boshqariladi.

Bu fuqarolarning turli masalalar, jumladan, moddiy yordam, hududlarni obodonlashtirish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqish vaqtini sezilarini darajada qisqartiradi. Shuningdek, mablag' talab qiluvchi masalalar mahalla ixtiyoriga o'tadi. Bu mablag'lar o'sib ke layotgan yosh avlod bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazishi, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lib voyaga yetishi uchun kutubxonalar, sport maydonchalarini tashkil etishga yo'naltiriladi.

Aholining birlamchi ehtiyojlar - uy-joy, ish joyi, bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazish, yashash joyidagi quylayklarni ta'minlash barcha islohotlar markazidan o'ren egallagan va mahalladagi totuvot, tinchlik, tarbiya va mafratning strategik ahamiyati odamlarning hayot tarziga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning birinchi choragiida 45 milliard 249 million so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 1,8 baravar ko'p jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlarni undirilishiga erishilgan. Ko'rsatkich bundan ham yaxshiroq bo'lishi mumkin edi. Buning uchun "Mahalla budgeti" tizimini amaliyotga joriy etishda jismoniy shaxslardan

olinadigan mol-mulk va yer soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarur. Xususan, soliq to'lovchilarning bilim va ko'nikmasi yetarli emasligi oqibatida soliq qarzi yuzaga kelmoqda. Shu bois soliqqa oid misollardan foydalangan holda roliklar tayyorlash va ommaviy axborot vositalari orqali aholiga keng yetkazish, bunda hayoti misollar keltirish orqali soliqlar aniling yashash sharoitlariga ijobi yas'ir ko'rsatishini aks etirishga e'tibor qaratish lozim.

Tegishli vazirlik va idoralarga joriy yil 1-iyulga qadar huquqiy eksperiment natijalari to'g'risida axborot va ushbu tizimni respublikaning barcha tuman (shahar) larida joriy etish yuzasidan takiflar kiritish vazifasi topshirilgan. Bunda yuqoridagi holatlar ham e'tiborga olinsa, yanada yaxshi bo'lishi shubhasiz.

Z.EGAMOV,  
xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi deputati.



O'QITUVCHI FEVRALDA ISHGA KIRSA, TA'TIL VAQTI VA TA'TIL PULI QANDAY BO'LADI?

- Matabda direktor o'rinnbosari bo'lib ishlayman. Ayrim o'qituvchilarimiz o'quv yilining yarmidan ishga kirgan. Misol, bir o'qituvchi fevralsa, yana bittasi mart oyida ishga kirgan. Ularga ta'til berishda muddati va to'lovi qanday bo'ladi? To'liq beriladi?

Zuhiddin MUHIDDINOV,  
Payariq tumani.

- Mehnat kodeksining 227-moddasidagi 1-qismida shunday qoidalar bor:

- har yilgi mehnat ta'tili o'qichilarining yozgi ta'tili davrida beriladigan ta'lum tashkilotlarining o'qituvchilar tarkibiga birinchi ish yilidagi har yilgi mehnat ta'tili o'qichilarining yozgi ta'tili davrida to'liq davomiylikda, ular ushbu ta'lum tashkilotiga ishga kirgan vaqtidan qat'i nazar, ishlab bergan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'langan holda beriladi;

- mazkur toifadagi xodimlarga ikkinchi va keyingi ish yillari uchun beriladigan mehnat ta'tiliga, ushbu ta'til ish yili davomida qaysi vaqtida berilishidan qat'i nazar, to'liq haq to'lanadi.

Ushbu qoidalarning mazmuni shunday. Masalan, o'qituvchi o'quv yilining yarmidan, deylik, siz aytgandek, 2023-yil fevral oyida ishga kirgan bo'lsa ham mehnat ta'tili yozgi mavsumda to'liq davomiylikda berilishi shart. Ya'ni, qolgan o'qituvchilar bilan bir xil muddatda. Lekin to'lovi borasida unday bo'lmaydi. Ta'til puli o'sha o'qituvchining ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda beriladi. Bu o'qituvchining birinchi ish yilidagi ta'tiliga tegishli.

O'qituvchining ikkinchi va undan keyingi ish yillari bo'yicha esa ta'til qaysi vaqtida berilishidan qat'i nazar, mehnat ta'tili puli to'liq to'lanadi.

- Muzeysa yetakchi mutaxassis vazifasida ishlayman. Mehnat ta'tiliga chiqmoqchiman. Ta'tilda sog'lig'ini tiklash uchun xodimlarga bir yilda bir marta beriladi. moddiy yordam pulini olsam bo'ladi?

Sharifa XODIYEVA,  
Samarqand shahri.

- Mehnat kodeksida xodimlarga beriladigan moddiy yordam to'lovlarini to'lash majburiyati haqida aniq normalar yo'q.

Vayrlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyundagi 458-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat madaniyat muassasalarini va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lash hamda ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi nizomda ham ta'tilga chiqqanda beriladigan moddiy yordam haqida gap-so'z yo'q.

Siz aytgan moddiy yordam puli haqida jamoa kelistivida yoki muassasining jamoa shartnomasida aniq qoidalar bo'lishi mumkin (Mehnat kodeksining 246-moddasidagi 2-qismi).

Agar haqiqatan ham jamoa kelistivi yoki jamoa shartnomasida madaniyat sohasi va muzej xodimlariha har yilgi mehnat ta'tiliga chiqqanida bir martalik moddiy yordam puli to'lash haqida aytilgan bo'lsa, demak, ish beruvchi bunga majbur.

Savollarga viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi davlat mehnat nazorat inspeksiysi boshlig'i o'rinnbosari

Mansur NORBOYEV javob berdi.

## Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tashkil etildi

*Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali negizida Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyulagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"-gi qarorida belgilandi.*

Shuningdek, qarorga ko'ra, filialga tegishli barcha mol-mulk operativ boshqaruv huquqi asosida Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutiga o'tkazildi.

Bundan tashqari, yangi o'quv yilidan institut huzurida Koreya Respublikasi hukumatining 4,5 million AQSh dollarini miqdoridagi mablag'lari hisobidan "Kartoshka urug'chiligi va ishlab chiqarish tizimini rivojlantirishda kadrler salohiyati va tadqiqotlarni rivojlantirish" loyihasi doirasida O'zbekiston-Koreya Kartoshka urug'chiligi markazi tashkil qilinadi.

Mazkur institutda Yevropa Iftifoqining ta'lim dasturi doirasida yetakchi xorijiy olyi

ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarini bilan hamkorlikda xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan "Bioqitqisodiyot" markazi tashkil etiladi.

Institut huzurida CARIS "Samarqand innovations ta'lim va qishloq xo'jaligi islohotlari tadqiqotlari" markazida xalqaro standartlar asosida qishloq xo'jaligi olib borilayotgan islohotlar samarasini tahlili hamda tadqiqotlari amalga oshiriladi.

Institut moddiy-teknika bazasini mustahkamla maqsadida 2024-2025 o'quv yiliga qadar 1000 o'rinci o'quv binosi quriladi va 360 o'rinci talabalar turarjoyi rekonstruksiya qilinadi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Uning qalbi zulmatdan nur topadi. Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan tuyg'ularni his qilib, she'rga soladi. U odamlarga va o'zini baxtli kelajak kutayotganiga ishonadi. Sherbek Islomov she'riyatga mehr qo'yan, qalb kechinmalarini satrilarida ifodalagan, san'atga oshno, umidli yoshlardan.

## Prezidentga va'da bergenman

Sherbek 2003-yilda Urgut tumani Qaynarbuloq (Zinak) mahallasida tug'ilgan. Samarqand shahridagi ko'zi ojiz bolalar ta'lum oladigan 59-sonli maxsus maktab-internatda o'qigan. O'quvchilik yillarday oqyoq qalb ko'zi bilan anglagan she'riy mashqlari "Qayoshga tik qaraganlar" nomli she'riy to'plamdan o'rinn olyan. She'rlarida Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, tabiat tasviri hamda qalb kechinmalarini o'z ifodasini topgan.



Nugsoningizni yuzingizga aytishsa, alam qiladi, lekin bu sizni kuchli bo'lishga ham undaydi, - deydi Sherbek. - Inson hayotda kim bo'lishidan qat'i nazar, har doim maqsadi sari intilib yashashi va timmay mehnat qilishi kerak. O'tgan yillar davomida turli ko'rik-tanlovlar g'olib va sovordini, respublika fan olimpiadisida g'olib bo'lganman. Bo'sh vaqtimda ijod bilan shug'ullanaman va turli cholg'u asboblarini chalaman.

2022-yil fevral oyida Prezidentimiz Samarqandga tashrifi doirasida ko'zi ojiz bolalar ta'lum oladigan 59-sonli maxsus maktab-internatda bo'lib, o'quvchilar bilan uchrashgan edilar. O'shanda Yurtboshimiz bilan bo'lgan suhbatda kelajakdagagi rejalarim va tafakkirlarini aytib, yuksat natijalarga erishishga va'da bergandim. O'tgan yil ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan respublika fan olimpiadisida g'olib bo'lib, grant asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetiga o'qishga qabul qilindim. Yoshlar kuni arafasida yutuqlarim va kamtarona ijodim e'tirof etilib, Davlatimiz rahbarining farmoniga ko'ra "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Rost, bunday e'tibor va e'tirofdan boshim ko'ka yetdi, oldimga qo'yan maqsadlarimga erishishda katta turtki bo'ldi. Kelajakda bundan-da yuksak natijalarga erishishga, ota-onam va Prezidentimiz ishchonchini oqlashga astoydil harakat qilaman.

F.RO'ZIBOYEV.

## Davlat xaridlari doimiy nazoratda

*Statistik ma'lumotlarga qaraganda, respublikamiz yalpi ichki mahsulotining 28 foizi miqdoridagi mablag'lar davlat xaridlari amalga oshirishga yo'naltirilgan. Bu esa o'z o'rinda davlat xaridlari sohasida raqobat muhitini shakllantirish va qonun ustuvorligini ta'minlash dolzarbigidan dalolat beradi.*

Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat xaridlari savdolar o'tkazishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibini buzish, savdolarning tashkilotchilar va (yoki) buyurtmachilarini tomonidan savdolar ishtirokchilarining faoliyatini muvoqiflashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlardan savdolarda qatnashish uchun hujjatlarni qabil qilishni asosiz ravishda rad etish, savdolar ishtirokchilarini asossiz ravishda chetlashtirish, savdolarning bitta yoki bi nechta ishtirokchisiga savdolarda qatnashish uchun imtiyozi shart-sharoitlar yaratish berish va tovarning aniq ishlab chiqaruvchisini ko'rsatish mumkin emas.

Hududdy boshqarma tomonidan davlat xaridlari maxsus axborot portalidagi o'chiq ma'lumotlar va kelib tushgan murojaatlar asosida

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlari instituti professor-o'qituvchilar uchun hafta davomida O'zbekistonda bioiqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, agro-ekoturizm, qishloq xo'jaligi yo'nalişlarida tajriba almashish, yangi loyihalarni amalgalashish hamda bioiqtisodiyot bo'yicha yangi magistrlik dasturini rivojlantirish məqsadida Erasmus+ dasturi, BioEcUz loyihasi doirasida Yevropa Ittifoqining Finlandiya, Latviya va Litva davlatlarida xizmat safarida bo'lib keldi.

Xizmat safari davomida JAMK amaliy bilimler universiteti VTT texnika tadqiqot markazida bo'ldi. Markazning asosiy faoliyatini yangi texnologiyalarni qo'llab, iqtisodiyot va jamiyatning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat. Bu yerda hozirda yog'ochdan innovatsion usulda tola olinib, turli mahsulotlarni tayyorlanmoqda. Markaz bugun dunyoning 20 dan ortiq nufuzli korxonalarini va tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'liga qo'yan.

Finlandiyada nafaqat qishloq va o'rmon xo'jaligi, balki agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari tayyorlash sohasi ham yaxshi rivojlangan. Delegatsiya a'zolari Finlandiyaning "Valtra" traktor zavodida bo'lib, uning faoliyatini bilan tanishdi. "Valtra" xaridorda talabiga binoan ko'p qirrali xususiyatlari va innovatsion texnologiyani ajoyib qulaylikka birlashtirgan traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqaruvchi korxona sifatida dunyo bozorida o'z o'rnni topgan. Zavod bilan kelgusida hamkorlik qilish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

Shuningdek, Finlandiyada minglab ko'llar mavjud bo'lib, mamlakat mahally va xorijlik turistlarga ekotur-

## O'zbekistonda bioiqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga hissa qo'shamiz



izm xizmatini yuqori sifatda ko'rsatadi. Buning isbotini jamoamiz bilan Konnevesi ko'liga qilgan sayohatimiz davomida ko'dik. Bu kabi xizmatlarni O'zbekistonda ham sayohatchilarga taqdim etishni rivojlantirish kelgusida YalMning o'sishi va infrastrukturaning yaxshilanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, Finlandiyaning Yuvaskulya universiteti qoshidagi ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini bilan tanishdi. Ko'llardan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlash borasida olib borilayotgan amaliy tadqiqotlar o'rganildi.

Yuvaskulya universiteti dunyoning top 500 talik universitetlari qatoridan joy olgan. Universitetning o'quv va ilmiy faoliyatini bilan kimyo kafedrasini mudiri Ari Vaisanen tanishтиrdi. Bugungi kunda bu kafedrada metall mavjud bo'igan chiqindilardan turli elementlarni qayta ajratib olish va uni sanoatda qo'llash amaliyoti olib borilmoqda. Bu esa mamlakatda aylanma iqtisodiyot rivojilab bo'rayotganligini ko'rsatadi.

Safar davomida Finlandiyadagi chiqindilarni qayta ishlovchi hamda biogaz ishlab chiqaruvchi ikkita yirik

korxona faoliyati bilan tanishbidi. Bu sohada kelajakda hamkorlik qilish maqsadida ma'lumotlar almashtidi.

JAMK amaliy bilimler universiteti va institutining mas'ul professor-o'qituvchilar bioiqtisodiyot magistratura bosqichida o'qitiladigan fan dasturlarini yanada takomillashtirish bo'yicha o'zaro tajriba almashdi.

Safarning ikkinchi haftasi Latviya davlatida davom ettilidi. Dastlab, Latviya tabiyi fanlar va texnologiyalar universiteti rahbariyati bilan uchrashbidi. Uchrashuvda talabalar almashtinvi, qo'shma dasturlarini tashkil qilish hamda professor-o'qituvchilarining stajirovkalarini o'tashlari bo'yicha kelishbidi.

Shuningdek, bioiqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturini muvaffaqiyatli amalgalashishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan tanishish maqsadida universitetning qishloq xo'jaligi hamda iqtisodiyot fakultetlari professor-o'qituvchilar bilan birgalikda amaliy mashq'ulotlar o'tkazildi.

Latviyaning ko'p tarmoqli "Rambalni" korxonasida mahalliy meva va sabzavotlardan turli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish yo'llari

va amaliyoti ham delegatsiyamiz a'zolarda katta taassurot qoldirdi. Korxonada bioresurslardan hordiq chiqarish maskanlari tashkil qilinib, xizmatlar ko'rsatish keng yo'iga qo'yilgани e'tiborimizni tortdi. Bu amaliyotni O'zbekistonda ham joriy etish imkoniyatlari mavjudligi muhokama qilindi.

Latvia qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari, jumladan, sut ishlab chiqarish, sutni qayta ishslash, meva-sabzavotlarni sublimatsiyalangan holda quritish, kichik dehqon xo'jaliklari faoliyati, o'rmonchilik, landshaft dizayni kabi bir qancha yo'nashishlarni kuzatdik.

Vytautas Magnus universitetida "Bioiqtisodiyotni rivojlantirishda Tadqiqot&amp; innovatsiya, ta'lim va muvaffaqiyatli amaliyotlar" nomli xalqaro konferensiyada O'zbekistonda bu sohada olib borilayotgan ishlar bo'yicha taqdimat qilinib, sohoni rivojlantirish bo'yicha yetuk olimlar bilan birgalikda fikr almashtidik.

Bioiqtisodiyotning mamlakatda ekologik masalalarni hal qilishi bilan bir qatorda katta ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga olib kelishini, hukumatning bu sohoni qo'llab-quvvatlashi, strategik konsepsiya zarurligini universitet professori Vlada Vitunskyne ilmiy tadqiqot va loyihalarida asoslab berdi.

Delagatsiya a'zolari Litva qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik ilmiy tadqiqot markazi, biokimyo va texnologiyalar laboratoriysi hamda "Bog'dorchilik" institutida olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Institut professor-o'qituvchilar xorijda olib bilim va malakalari asosida o'quv mashg'ulotlari, yangi o'quv rejalar va fan dasturlarini tashkil qilish hamda foydalanishni yo'iga qo'yamoqda. Shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi sohasida yangi loyihalar, startaplarni shakkantirish, spinof korxonalarini tashkil etishda hamkorlikda ishlar olib borishni rejalashtirdik.

**Bobur ESHONQULOV,**  
**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlari instituti prorektori.**

Oramizda shunday insonlar borki, ular nafaqat ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shadi, balki o'z sohasining yetuk olimi bo'lib, o'ziga xos maktab yaratadi. Zuvayd Izzatullayev O'zbekiston malakologlari maktabining asoschisidir.

## Ilmiy maktab yaratgan olim



Olimning bolaligi Oqdarsoy tumanida o'tdi. U 1943-yil 16-iyulda Oqdarsoy tumanı Dahbed qo'rg'onida tug'ildi. O'rta maktabni kumush medal bilan tugatib, Tojikiston davlat universitetining tabibiy fanlar fakulteti biologiya bo'limiga o'qishga kirdi. 1967-yili Tojikiston Fanlar akademiyasining zoologiya va parazitologiya instituti aspiranturasida kirdi. Aspiranturani Rossiya Fanlar akademiyasining zoologiya institutida davom ettirdi va nomzodlik dissertasiyasini himoya qildi.

Z.Izzatullayev 1992-yil gacha zoologiya va parazitologiya institutida kichik, katta va bosh ilmiy xodim lavozimlarida mehnat qilib, biryo'la umurtqasiz hayvonlar sistematikasi bo'limini ham boshqardi.

Shuningdek, Markaziy Osyoning cho'lu biyobonlari va tog'lariga uyuşshtirilgan ekspeditsiyalarda qatnashib, minglab mollyuskalarga oid kolleksiyalar yig'di va ularni o'rgangach, 70 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etirdi.

Olim 1981-1983-yillarda Rossianing Sankt-Peterburg shahridagi zoologiya instituti doktoranturasida tahsil olib, doktorlik disserasiyasini himoya qildi.

Olim birinchi bo'lib Markaziy Osyo mollyuskalarining sanitarki vazifasini o'tashini ilmiy asoslab berdi. U mollyuskalarning fan uchun 100 dan ortiq yangi turlari, avlodlari va kenja oilalarini kashf etdi.

Bundan tashqari, professor Z.Izzatullayevning ilmiy faoliyati qishloq xo'jaligi bilan ham bog'liq bo'lib, o'simliklarni himoya qilish va veterinariya sohalari xodimlariga zararli mollyuskalarga qarshi kurash bo'yicha yaqindan yordam berib kelmoqda.

Olim ilmiy ma'rزالari bilan UNESCOning "Buyuk Ipak yo'li" simpoziumi (Dushanbe, 1991) va o'nlab xalqaro anjumanlarda qatnashgan. 1992-1993-yillarda

**Husniddin BOYMURODOV,**  
**biologiya fanlari doktori, professor.**  
**Abduvoit PAZILOV,**  
**biologiya fanlari doktori, professor.**

## Ekinlar zararkunandalariga qarshi yangi usul

Paxta maydonlarida uchraydigan xavfli zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlarga qarshi kurash choralarini kuchaytirish maqsadida o'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan "Dolzarb qirq kunlik" e'lon qilindi.

Bu davrda ekinlarni biologik himoyalashni kuchaytirish, g'o'za maydonlariga oltinko'z entomofaglarini tarqatish ishlari olib boriladi. G'o'za zararkunandasiga qarshi feromon tutqichilar o'rnatiladi. Mevali bog', poliz, issiqxona, dukkakli va boshqa ekinlarda uchraydigan zararkunandalariga qarshi oltinko'z va brakon entomofaglari qo'llaniladi.

Mutaxassislar tomonidan g'o'za maydonlarida monitoring va fitosanitar dala nazorati hamda fermerlar daftaringin yuritilishini tashkil etish, g'o'za maydonlarida zararkunandalarning kuchli tarqalish o'choqlarini doimiy nazoratga olish, iqtisodiy zarar oshganda, kimiyoj qarshi kurash o'tkazilishini kuchaytirish lozimligi tushuntirilmoqda.

Hozirgi kunda viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi tasarrufida 215 ta biolaboratoriya mavjud. Bu biolaboratoriyalarda 459 kilogramm triogramma, 290 million dona bra-



kon, 322 million dona oltinko'z entomofaglarini ko'paytirish rejalashtirilgan.

Qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish uchun yana bir bioagent

entomopotogen nematoda viloyatimizga kirib keldi. Hozirda biolaboratoriyalarda ushu biomahsulot ko'paytirilib, ekin maydonlarida qo'llanilmoqda. Jumladan, "Jomboy o'simliklar klinikasi va biolaboratoriya markazi" MCHJga qarashli biolaboratoriya tomonidan 40 hektar, Kattaqo'rg'on tumanidagi "Paxtani zararkunandalardan tozalash" UKga qarashli bo'lgan biolaboratoriya tomonidan 35 hektar g'o'za maydonida joriy qilindi. Past Darg'om tumanidagi "Juma porloq" MCHJga qarashli biolaboratoriya tomonidan 20 hektar, "Umida Sodiqova barakasi" MCHJ xonadonbay biolaboratoriyanidan 50 hektar, Ishtixon tumanidagi "Maroqand bioma-dad" MCHJ biolaboratoriysi tomonidan esa 50 hektar g'o'za va 2 hektar issiqxona ekinlariga nematodalar qo'llanilgan.

Bu kabi tadbirlarni to'g'ri va samarali tashkil etish qishloq xo'jalik ekinlariidan fitosanitar toza va sifatlari hosil olishga xizmat qiladi.

**Baxtigil G'ANIYEVA,**  
**viloyat o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi axborot xizmati rahbari.**

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Raxmatova Pulatiga (1988-yil 23-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Berdiyev Latif Lapasovichga (2022-yil 15-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

\*\*\*

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasida marhum Rustamov Dastonga (2017-yil 4-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Urgut shahri Bog'i Usmon mavzesi.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhibiddinovich notarial idorasida marhum Yunusov

Orzikul Radjabovichga (2021-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Jo'rayev Kamoliddin Muhibiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzulayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Kamasheva Lyubov Viktororovna (2023-yil 5-aprelida vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Narzulayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

\*\*\*

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi markaz mifikasiga kafedrasida katta o'qituvchisi Xusniddin Qoraboyevga onasi

**Bekkam TURDIYEVA**ning vafotini munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Samarqand davlat chet tillar instituti rektorati va kasaba uyushma qo'mitasi institut talabalar bo'limi hisobchisi

**Maryam BEKNAZAROVAning** vafotini munosabati bilan marhumining oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

## TANLOVDA QATNASHING!

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2023-2024-o'quv yili uchun quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali va ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarini tanlov asosida ishga taklif etadi:

1. Matematika.
2. Informatika.
3. Fizika va astronomiya.
4. Kimyo.
5. Biologiya.
6. Geografiya va iqtisodiy bilim asoslarini.
7. Tarix.
8. Falsafa.
9. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi.
10. Musiqo ta'limi.
11. Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili.
12. Boshlang'ich ta'limi.
13. Maktabgacha ta'limi.
14. Jismoniy madaniyat.
15. Texnologik ta'l

Yoshligimdan Moskva shahriga borishni, o'sha yerda ilm olib, rus tilini yanada yax-shiroq o'rganishni orzu qillardim. Shu maqsadda juda ko'p kitob o'qirdim. Maktabni a'llo baholarda tugatib, o'qishga kirmoqchi bo'lib turganimda uy-dagilar turmushta berib yuborishdi. Biroq bari-bir keyinchalik sirtdan bo'lsa-da, o'qidim.



## Dunyo tanigan olimning

Samarqand bilan bog'liq xotiralari

Taqdir taqozosi bilan oilamizdagilar bilan Moskva shahriga ishlagan bor-dim. Biz faoliyat yuritayotgan kompaniya bayram, to'y va tantanalarga xizmat ko'rsatardi.

Musofirchilik emasmi, onamni, yaqinlarimni tez-tez sog'i inaman.

Bir kuni ishdan qaytayotib, keksa biofizik olim, qator yillar Irkutsk davlat universiteti rektori bo'lib ishlagan Yury Pavlovich Kozlovni ko'rib goldim. Unimasi bilandir otamga juda o'xshab ketardi. Bitta taksida ketdik. Salom berdim.

- Qizim, qayerliksan? - so'radi Yury Pavlovich.

- O'zbekistondanman, - dedim.

- Bir kuni imkonini topib uymiga kelgin, qizim. Bafurja suhbatlashamiz, yurting haqida ko'p yoqimli xotiralarim bor, - dedi professor o'ya cho'mib.

Vaqt topib, dugonam bilan keksa olimning uyiga bordim.

Besh yuzdan ziyyod ilmiy ishlar, 17 monografiya, darslik va qo'llamalar, 7 ta xalqaro ixtiolar muallifi, 22 ta doktorlik va 98 ta nomzodlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan rus olimi Yury Kozloving Samarqand shahri bilan bog'liq juda ko'p qiziqarli xotiralarini bor ekan.

- Bolalik bilan bog'liq voqealar bir umr insonning yodida qolar ekan, - deydi Yury Pavlovich. - Hayotim davomida ko'p shaharlarda bo'ldim. Turfa olam, turli insonlar bilan uchrashib, muloqot qildim. 1941-yil urush boshlanganida olti yoshda edim. Ota-onam va ukam bilan yashardik. Urush tufayli biz ham ona vatanimizni tashlab, O'zbekistonga yuborildik. Esimda, uzun vagonlarni tortgan poyezdda serquyosh yurtga yo'l oldik. Onamning hay-haylashlariga qaramasdan, biz bilan kelayotgan bolalarni gapga tutardim. Uxlasmadan atrofni, shahar va qishloqlarni, yo'llarni tomosha qilib kelardim. Umrimda ko'magan o'lkalarini, odamlar va daraxtlarni tomosha qilib juda maroqli edi.

Ko'p yurib, ming bir qiyinchilik va mashaqqatlar bilan niyoyat manzilga yetib keldik. Ucam onamning quchog'iда uxlab qolgan mahalda poyezdimiz to'xtadi. Ko'pchilikni Toshkent shahriga keldik, endi tusharkanmiz, deganlar kechagidek yodimda qolgan.

Ayollar va bolalarning ko'pchiligi poyezddan tushirildi. Ammo bir qancha hamrohlari bilan biz yo'lda davom etdik. Yo'lda Samarqandga kelayotib, charchoq zo'rlik qilgan shekilli, uxlab qolibman.

Ko'zimni ochsam, notanish bir uyda yotibman. Sekin yonimga qarasam, onam va ukam ham uxlab yotishibdi. Nariroqda kecha biz bilan birga kelgan xola va uning bolalari pishillab uylashardi. Oy yorug'iда ularning yuzini aniq ko'rdim.

Biz yashagan xonadon egalari juda ham mehmondo'st, qalbi daryo insonlar ekan. Ular bizlarni o'z farzandlaridek ko'rib, erkaliardi. Har bo'limsada, kunora mazali taomlar pishirib, gornimizni to'yg'izishardi.

Xonadon egasining narigi tomonda joylashgan uyida ham biz bilan birga kelgan rus va boshqa millatga mansub ayollar va ularning farzandlari joylashganini bildim.

1941-yildan 1944-yilgacha Samarqand shahrida yashadik. Uy egalari bizga o'z tug'ishganlarimizdek yaqin va qadri bo'lib goldi. Bizni xonadon egalaring qarindoshlari, qo'shnilar meh-

monlikka olib ketishardi. Bu yerda juda ko'p do'star orttirdim. Ular bilan yozda rezavor mevalar terish, suv tashish va boshqa yumushlarni bajargim kelardi. Ammo uy egasi bizlarni og'ir ish qilishimizga yo'l qo'ymasdi.

1944-yilda otam kelib bizlarni Moskvaga olib ketaman deganida, shu yerda qolaman, deb rosa xarxsha qilganman.

Butun umrim davomida Samarqandga kelib yashashni orzu qilardim.

**To'iqin Eshbek zamonamizning fidoyi ziyo'lilaridan, qalamni Samarqand jurnalistik maktabida qayralgan. Hozirda ham bizning Toshkentdag'i faol mualliflarimizden bira.**

**To'iqin bilan bir qishloqdan bo'lganim uchun uning ijodga ishtiyoiq bilan kirib kelganiga guvohman, - deydi tajribali jurnalist Muqaddam Hayitova. - Ko'p kitob va gazeta o'qirdi, ish dan qaytishimni kutib turar**

**va deyarli har hafta ko'rib berishim uchun bitta maqola tayyorlab kelardi. Darsdan so'ng tez-tez tahririyatga kelib, muxbirlardan saboq olardi. Men To'iqinjonda bugun ham o'sha ishtiyoiq va shijoatni ko'raman.**

**Haq gap, T.Eshbek salohiyatlari, o'z maktabini yaratara olgan jurnalist, sohaning iqtidorli va tanqli olimi. Milliy universitet dotsenti sifatida nafaqat kadrlar tayyorlashda, balki ijod qilishda ham hamkasblariiga, yoshlarga iibrat ko'rsatayotir.**

**Biz ijodiy jama va mushariyalar nomidan hamkasbimizni 60 yoshi bilan tabriklaymiz va ijodiga baraka tilaymiz.**

Hozir ham uglasam, tushlarimga kirib chiqadi. Chunki bu yerda menga yaqin, aziz bo'lib qolgan insonlar, qadron o'rtolarmi bor edi.

1970-yilda ish yuzasidan O'zbekistonga, Samarqand shahriga kelish nasib etdi. Bundan shunchalik quvonib ketdimki, beixtiyor o'sha bizni bag'riga olyan xonadon egalarini, mahalladagi do'stlarimni borib ko'rish istagi tug'ildi. Biroq bolalikdag'i xotiramda qolgan shahar ancha o'zgarib ketgan ekan. Faqtina barchani o'ziga rom etgan ko'hna Registon maydoni o'sha-o'sha sirli va go'zal edi. Men yashagan hovli va uning atrofi butunlay o'zgarib ketibdi. Eski uy-joylar buzlib, o'rniga yangilar qurilgandi. Daraxtlar ekiib, bog' va gulzorlar ko'paygan ekan.

Men mehmonxonadan chiqib, onam va ukam bilan yashagan xonadon egalarini, loaqla ularning farzandlarini ko'rsam edi, degan ilinija yo'liga tushdim. Ammo barcha urinishlarim zoye ketdi. Afsuski, ularning birortasini ko'rish nasib etmadni. Meni o'z farzan-didek katta qilgan oila boshqa shaharga ko'chib ketgan degan javobni oldim...

**Nargiza ROFEZODA.**



## JAVOB

Uchqun Bo'ronovich ko'chaga otlan-gan mahal xotini zorlandi:  
— Kun bo'yisi so'rayverib, odamni xunob qilib yuborisha-di. Jilla qursa, qo'lidagi raqa-minni aytning, deb qistashgani qistashgan... Endi qo'l telefonni olmasangiz bo'lmaydi chog'i...  
— Keyin nima bo'lishini bilasanmi? — zardaliroq ohangda chiqdi erining ovozi.  
— Bo'lar-bo'imsaga chaqiraverib, bemalol ishlashga qo'yishmaydi. Ikki-uch joyda ishlashdan tashqari, qancha tahririyat bilan "Mehnat shartnomasi" tuzib qo'yanimni bilasan-ku...  
— Xo'p, bugun so'raganlarga nima deyin?  
— Fakultetdan so'rasalar, boshqarma dan chaqirib qolishdi, degin, xo'pmi?  
Xotini, to'xtang, deya ichkaridan dafta bilan qalam olib chiqdi-da bosh iring'i:  
— Yozib qo'yamasam, adashib ketyapman. Xo'sh, boshqarmadan so'rab qolishsa?  
— Vazirlikdaman.  
— Vazirlikdan so'rashsa?  
— Xalqaro anjunmanga taklif qilish-gandi, de.

— Bu yerdan ham topa olmayapmiz, deb qolishsa-chi?  
— Tahririyatdaman.  
— Qaysi birida?  
— Jurnallar joylashgan soatli binoda.  
— Bu yerdan yo'q ekan, deyishsa?  
— Gazetalar binosida, de.  
— Bu yoqlarni ham qarab chiqdik, deyishsa-chi?  
— Nashriyotdaman.  
— Nashriyotdan ham topolmadik, deyishsa?  
— Uyushmadaman.  
— Uyushmadan so'rashsa?..  
— Milliy matbuot markazida.  
— Markazda ham qorasib ko'rinnmayapti, deyishsa?  
— Internet klubida.  
— Internet orqali ham topolmayapmiz, deyishsa-chi?  
— Axborot xizmatdaman.  
— U yerdan har kuni kamida to'rt-besh marta so'rashadi, - dedi xotinining qutu uchib. — Bugun nima deyin?  
— Tobi qo'chib qoldi, shifoxonaga ketdi, de. So'nggi gapni aytganda Uchqun Bo'ronovich o'ziga-o'zi g'o'ldirab qo'ysi: Xudo ko'rsatmasin...  
— Qaysi shifoxonada ekanini aytning, ko'rgani boramiz, deyishsa?  
— Do'xtirlar tuzata olmagandi, noiloj tabibiga ketgan, deyaver.  
— Tabib og'ayningiz so'rab qolsa-chi?  
— afti bujmaydi ojizaning. — U ham so'ragani so'ragan...

## Sharqona ma'naviyat va zamonaviy taraqqiyot chorrahasidagi Eron

**Professor Azamat Akbarovning qadimiy ma'naviyat o'choqlaridan bira bo'lgan Eron bo'yab amalga oshirgan safari natijasida yaratilgan ana shu nomidagi kitobi chop etildi.**

Samarqand shahridagi "Panjob" madrasasida ushbu kitobning taqditi o'tkazildi. Unda ishtirot etgan tanqli olimlar va mutaxassislar o'zlarining kitob haqidagi iliq fikrlari ni bilardи.

- Kitob keng omma uchun mo'jallangan, - deydi "O'zbekiston-Eron" do'stlik jamiyatni boshqaruven kengashi a'zosini Haydar Xolov. - Kitob sahifalarini varaqlar ekansiz, siz ham muallif bilan birga ushbu diltortar mamlakatning jozibali shaharlariga sayohat qilish barobarida, uning qadimiy osori-atiqalarini, ma'naviy dunyosidan bahra olasiz, bashariyat taraqqiyoti uchun xizmati



singan buyuk davlat arboblari va ijodkorlari bilan tanishasiz, shirinsuxan odamlarining muomalasi va urf-odatlaridan zavqlanmasiz, taomlaridan tatib ko'rgandek bo'lasiz.

Kitob O'zbekiston va Eron davlatlari rahbarlarining ikkala mamlakat o'tasidagi madaniy va gumanitar sohada hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha erishilgan kelishuvlariga mos

bo'lib, "O'zbekiston-Eron" do'stlik jamiyatni tomonidan qadimdan O'zbekiston va Eron xalqlari o'tasida mayjud bo'lgan o'zarbo'li munosabatlarni yanada mustahkamash bo'yicha olib borayotgan faoliyatida muhim manba va vositalardan bira bo'lishi shubhasiz.

- 80 dan ortiq davlatga boranman, lekin Eronda bo'lmagandim, - deydi kitob muallifi Azamat Akbarov. - Eron men uchun faqat orzu bo'lgan. Nihoyat, menga Eron Tashqi ishlar vazirligi tomonidan "Tehnologicheskii dialog forumi" da O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan so'nggi o'zgarishlar va ta'lim tizimi haqida ma'ruzachi sifatida ishtirot etish imkoniyati berildi. Shundan so'ng Eronda bir oy bo'ldim va u yerdan ko'plab qimmatli ma'lumotlar bilan yurtimizga qaytdim.

Taqdimot so'ngida qat-nashchilarga muallifning ushbu kitobi sovg'a qilindi. Jasurbek SHUKUROV.

Gazetaning navbatdagi soni 2023-yil 15-iyul, shanba kuni chop etiladi.

Navbatchi muharrir:

G'HASANOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X

9 7 7 2 0 1 6 6 7 0 9

Sotuvda  
narxi kelishilgan holda

↓ "Zarafshon" gazetasi 110 yoshda

## Bugungi kunning fidoyilar

Har gal "Zarafshon"ni qo'liga olar ekanman, quvonaman. Chunki gazeta sahifalaridagi maqolalarni o'qib, ularning qahramonlari bilan suhbatlashganday, sirlashganday bo'lamon.

Aqlimni tanibmanki, matbuot mening eng yaqin hamrohim. Quvvai hofizam yetganicha ommaviy axborot vositalarida ijod namunalarni, maqolalarim bilan faol ishtirot etib kelyapman.

O'zim qo'shni Navoiy viloyatidan bo'lganim uchun "Zarafshon" gazetasi bilan yaqin hamkorlik qilayotganimiga ko'p bo'lgani yo'q. Ammo keyingi 7-8 yilda tarixi va diniy-ma'rifiy mavzulardagi maqolalarim bosilib turibdi. Rost, shu tufayli odamlar, o'quvchilar, gazetxonalar o'rta-sida e'tibor topdim, ko'plab ajoyib insonlar orasidan do'st-birodarlar orttirdim. Bir so'z bilan aytganda, "Zaraf-

shon" gazetasi bilan hamkorlik qilib, kam bo'lmadim.

AQSHning taniqli siyosiy arbobi Tomas Jefferson "Xalq hukumatsi yashashi mumkin, ammo gazetasiz yashay olmaydi", degan ekan. Menimcha bu havoyi so'zlar emas, balki ayni haqiqat. Ba'zilar "Ota-bobolarimiz gazeta-jurnallar bo'lmagan davrlarda ham yashashgan-ku", deyishadi. To'g'ri, o'sha qadim davrlarda matbuot bugungi shaklu shamoyilda bo'lmagandir. Lekin amr-farmon hamda turli xabarlaranni xalqqa yetkazib turuvchi jarchilar, odamlar orasida targ'ibot-tashviqot olib boruvchi maddohu voizlar, xalqning ijtimoiy fikrini o'rganuvchi xufya-darakchilar va, niyoyat, har xil mol-matolarni reklama qiluvchi dalollo dalatchilar yetarli bo'lgan.

Mamlakatimizning keksa nashri - "Zarafshon" bu yil 110 yillik to'yini nishonlaydi. Shuncha yildan buyon gazeta taraflida fikr yurishiga undaydigani va ma'naviy olamga baha beradigan maqolalar bosilyapti. Tahririyatda ma-shaqqatli mehnatlaridan nolmay, charchamay, tolmay o'z ijod ishini sharaf bilan udalaydigan qalamkashlar bor.

Bugungi kun gazetachilari chin ma'nodagi fidoyilar, deyilsa, aslo mubolag'a yo'q. Bu haqiqatni anglagan oddiy bir qalamkash sifatida dil so'zim: Borlaringizga shukr, hormang va tolmanq, "Zarafshon"chilar! Suyundik Mustafa NUROTAIY.

— O'zi sizga qo'ng'iroq qilar ekan, de, — Uchqun Bo'ronovich o'zin-gapiiga o'zi kulib qo'ysi. — Hayot deganlari teatr sahnasining o'zgina-si. Qara, hozirgi holatim xuddi Ergash Karimoving intermediyasiga o'xshab ketyapti-ya! Unga o'rtoqlari "sen bi-lan kecha kutubxonada edik", "ikkimiz falonchini ko'rgani bergandik" deya habeb to'qib-bichavergach, axiyiri u "men bu yerdan ham yo'qman!" deb qichqirib yuboradi, hi-hi-hi...

Eri atay kuldirish uchun aytgan bu gapga ojiza hatto tishining oqini ham ko'rsatmadi. Aksincha, rangi-quti o'chgancha dididagini tiliga chiqardi:

— Xo'p, qayerga borishingizni loaql o'zilmsa bo'ladimi!

Men oqimga qarab oqsim o'ldimi! Bolajonlarga ham yoqsim o'ldimi! Bo'yningga marjonlar taqsim o'ldimi! Hech kimdan kam qilmay boqsim o'ldimi!

U shunaqa qofiyasini keltirib, yana biror satr aytgancha uchqundek uchib ketdi... Sochiga qirov qo'nib ham quyulgan erining so'nggi satrлaridan "duv" qizargan